

XIZMATLAR KO'RSATISHGA(ISHLARINI BAJARISHGA)

OID SHARTNOMA №13

Bulung'ur tumani

« 24 » «avgust » 2022 yil

Keyingi o'rinlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladigan **Bulung'ur tuman sport maktabi** (buyurtmachining nomi) nomidan Ustav asosida ish ko'ruvchi (ustav, nizom, ishonchnoma) **Sh.Mamatkulov** bir tomondan va (rahbarning familiyasi, ismi, otasining ismi) keyingi o'rinlarda «Pudratchi» deb yuritiladigan "**Mega Best Star Stroy**" MCHJ (yuridik shaxsning nomi) nomidan Ustav (ustav, nizom, ishonchnoma) asosida ish ko'ruvchi **A.Xamrakulov** (rahbarning familiyasi, ismi, otasining ismi) ikkinchi tomondan Tadbirkorlarga yuridik xizmat ko'rsatuvchi markaz (ob'ektning nomi) ob'ektni foydalanishga tayyor holda qurishga doir mazkur pudrat shartnomasini tuzdilar.

I. Tariflar

1. Mazkur shartnomada quyidagi tariflar qo'llaniladi: ijro hujjatlari – naturada bajarilgan ishlar yoki ishlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan ularga kiritilgan o'zgarishlarning ushbu ishchi chizmalarga muvofiqligi to'g'risidagi yozuvlar bilan birgalikda ob'ekt qurilishiga ishchi chizmalar turkumi, sertifikatlar, texnik pasportlar va o'rnatilgan asbob-uskunalarining sifatini va ishlarni bajarishda qo'llanilgan materiallar, konstruktsiyalar va detallarning sifatini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar, berkitiladigan ishlar tasdiqlanganligi to'g'risidagi dalolatnomalar, ayrim mas'uliyatli konstruktsiyalar oraliq davrda qabul qilinishi to'g'risidagi dalolatnomalar, montaj qilingan asbob-uskunalarining yakka tartibdagi sinovi to'g'risidagi dalolatnomalar, ishlarni bajarish daftarlari hamda qurilish normalari va qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar;

qurilish maydoni – mazkur shartnoma (kontrakt) doirasida barcha ishlarni bajarish davrida dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachi tomonidan Pudratchiga berilgan yer uchastkasi. Ob'ektning qurilish maydoni chegarasi ajratib qo'yiladi yoki bosh rejaga muvofiq belgilanadigan boshqa belgilar bilan belgilab qo'yiladi;

vaqtinchalik inshootlar – Pudratchi tomonidan qurilish maydonida o'rnatiladigan va ishlarni bajarish uchun zarur bo'lgan har qanday tipdagi vaqtinchalik binolar va inshootlar;

berkitiladigan ishlar – sifati va aniqligini keyingi ishlar bajarilgandan keyin aniqlash mumkin bo'lmagan keyinchalik bajariladigan ishlar va konstruktsiyalar bilan berkitiladigan ishlar;

shartnoma narxini bo'lib chiqish – ishlarning har bir bosqichi va/yoki turlari qiymatini aniq belgilagan holda shartnoma bo'yicha ob'ektning umumiy qiymatini bosqichlarga taqsimlash.

II. Shartnoma mavzusi

2. Pudratchi mazkur shartnoma shartlariga **Bulung'ur tuman sport maktabi binosini joriy ta'mirlash** ob'ektni foydalanishga tayyor holda qurish bo'yicha qurilish ishlarini bajarish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa Pudratchiga qurilish ishlarini bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish, ularni qabul qilish va to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

III. Shartnoma bo'yicha ishlar qiymati

3. Mazkur shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan bajarilgan, tanlov savdosi (tender) natijasida aniqlangan va tender komissiyasining qarori (19.08.2022dagi 136050 -son bayonnoma) bilan tasdiqlangan ishlar qiymati barcha soliqlar, yig'imlar va ajratmalarni o'z

ichiga olgan holda joriy narxlarda 198 700 000 (*Bir yuz to‘qson sakkiz million yetti yuz ming*) so‘mni tashkil etadi.

4. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno: qurilish qiymatini ko‘paytirishga yengib bo‘lmaydigan kuch (fors-major) holatlari sabab bo‘lganda; ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda; ob‘ektning qurilishi bir yildan ortiqqa o‘zgartirilganda.

5. Qurilish muddati bir yildan ortiq bo‘lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

6. Tegishli asoslar mavjud bo‘lganda, sanab o‘tilgan o‘zgarishlar Buyurtmachi bilan Pudratchi o‘rtasidagi shartnomaga qo‘shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

IV. Pudratchining majburiyatlari

7. Mazkur shartnoma bo‘yicha Pudratchi mazkur shartnomaning II bo‘limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun: barcha ishlarni mazkur shartnomada hamda unga 1-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish jadvalida nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o‘zining kuchlari va/yoki jalb qilingan kuchlar bilan bajarish hamda ishni Buyurtmachiga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish; 1-ilovaga muvofiq qurilish maydoniga zarur qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikasini yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va saqlash; qurilish maydoni hududida vaqtinchalik inshootlar qurish; Buyurtmachini pudrat shartnomalari tuzilishi davomida subpudratchilar bilan shartnomalar tuzilishi, shartnoma mavzusi, subpudratchining nomi va manzili to‘g‘risida xabardor qilish; qurilish maydonida texnika xavfsizligi, ishlarni bajarish vaqtida atrof muhitni, o‘tqazilgan daraxtlarni va yer uchastkasini muhofaza qilish bo‘yicha zarur tadbirlar bajarilishini ta‘minlash, shuningdek yoritish chiroqlari o‘rnatish; qurilish tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish; mazkur shartnoma bo‘yicha ob‘ektni foydalanishga qabul qilib olish to‘g‘risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab bir oy muddatda qurilish maydonini o‘ziga tegishli qurilish mashinalari va asbob-uskunalari, transport vositalari, anjomlar, priborlar, inventarlar, qurilish materiallari, buyumlar, konstruksiyalar hamda vaqtinchalik binolardan bo‘shatish; qurilish maydoni qo‘riqlanishini ta‘minlash; mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

8. Pudratchi mazkur shartnoma bo‘yicha barcha ishlarning o‘z kuchlari bilan va subpudratchilar tomonidan zarur tarzda bajarilishi hamda ob‘ektning foydalanishga tayyor holda topshirilishi uchun Buyurtmachi oldida to‘liq mulkiy javob beradi.

V. Buyurtmachining majburiyatlari

9. Mazkur shartnomani bajarish uchun Buyurtmachi:mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda mazkur shartnomaga 1-ilovaga muvofiq ishlarni bajarish uchun yaroqli bo‘lgan qurilish maydonini ob‘ekt qurilishi va qurilish tugallangungacha bo‘lgan davrda dalolatnoma bo‘yicha Pudratchiga berish; ishlar bajarilishi ustidan doimiy arxitektura-qurilish nazoratini va mazkur shartnomada qayd etilgan Pudratchi tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish, Pudratchidan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta‘minlash; Pudratchining barcha murojaatlarini o‘n kun muddatda ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish; moliyalashtirish jadvaliga binoan Pudratchiga 1-ilovaga muvofiq avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish; mazkur shartnoma imzolangan kundan boshlab 2 oy davomida Pudratchiga ishlarni qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ijro hujjatlari ro‘yxatini taqdim etish;

mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to'liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

VI. Ishlarni bajarish muddatlari

10. Mazkur shartnomaning bahosi **198 700 000 (Bir yuz to'qson sakkiz million yetti yuz ming)** so'mni QQS bilan tashkil etadi.

"Buyurtmachi" ko'rsatiladigan "Xizmatlar" turkumi summasining 30 foizi miqdorida 2022-yil avgust oyida oldindan haq to'laydi va Ko'rsatilgan "Xizmatlar" uchun qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolanganidan keyin "Xizmatlar" turkumi summasining 70 foizi miqdorida to'lovni amalga oshiradi.

11. Pudratchi mazkur shartnomaga ilova qilinadigan moliyalashtirish jadvaliga muvofiq birinchi avans to'lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

12. Tanlov savdolari natijasi bo'yicha aniqlangan qurilishning davom etish vaqti ishlar boshlangan kundan e'tiboran 2 kunni tashkil etadi.

13. Mazkur shartnoma bo'yicha ishlar ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

VII. To'lovlar va hisob-kitoblar

14. Buyurtmachi Pudratchiga shartnoma bo'yicha ishlar umumiy joriy qiymatining 10 foizi miqdorida, ikki oyga teng ulushlarga (oyiga 5 foizdan) bo'lgan holda avans o'tkazadi, bu 19 870 000 so'mni tashkil etadi.

VIII. Ishlarni bajarish

15. Buyurtmachi qurilish maydonida o'z vakilini – texnik auditorni tayinlaydi, u Buyurtmachining nomidan bajarilayotgan ishlar sifati ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek Pudratchi tomonidan foydalaniladigan materiallar va asbob-uskunalarining shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini tekshiradi.

16. Texnik auditor ishlar bajarilishining va shartnomaning butun davri mobaynida ishlarning barcha turlari bilan to'siqsiz tanishish huquqiga egadir.

17. Pudratchi texnik auditorni ishlash uchun joy bilan ta'minlaydi. Texnik auditor Pudratchi tomonidan o'tkaziladigan qurilish maydonida ishlarni amalga oshirish chog'ida paydo bo'luvchi masalalarni hal qilish bo'yicha yig'ilishlarda muntazam ravishda qatnashadi.

18. Pudratchi ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnomaning VI bo'limida ko'rsatilgan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o'z rejasi va jadvaliga binoan ob'ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

19. Pudratchi ob'ektda ishlarni olib borish tartibini davlat arxitektura-qurilish nazorati organlari bilan kelishadi va unga rioya etilishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

20. Qurilish maydonida umumiy tartibni ta'minlash Pudratchining vazifasi hisoblanadi.

21. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma bilan bir vaqtda Pudratchiga ortiqcha tuproq va qurilish axlatini joylashtirish va yetishmayotgan tuproqni qazib olish uchun joy ajratish to'g'risidagi hujjatlarni beradi.

22. Buyurtmachi qurilish maydonini berish to'g'risidagi dalolatnoma imzolangan kundan boshlab uch kun muddatda qurilish maydonini belgilash bo'yicha ishlarni bajarish va ob'ektni privyazka qilish uchun Pudratchiga geodeziya nuqtalari, ularning koordinatlari va balandlik belgilarini taqdim etadi.

23. Pudratchi geodeziya nuqtalariga, liniyalar va darajalarga nisbatan ob'ektning to'g'ri va zarur tarzda belgilanishi, shuningdek balandlik belgilari, o'lchamlari va bo'lish o'qlarining muvofiqligi to'g'ri joylashganligi uchun javob beradi.

Agar ishlarni bajarish jarayonida amalga oshirilgan bo'lish va geodeziya ishlarida xatolar aniqlansa, Pudratchi Buyurtmachi bilan kelishgan holda tegishli tuzatishlarni o'z hisobidan kiritadi.

24. Pudratchi geodeziya bo'lish ishlarida o'rnatiladigan koordinatlar va balandliklar, geodeziya belgilarining joylashishi sxemalari va jadvallarini saqlaydi, ishlarni bajarish davrida va ular tugallangandan keyin ularni dalolatnoma bo'yicha Buyurtmachiga beradi.

25. Qurilish maydonida ishlarni bajarish davrida kommunikatsiyalarni vaqtincha ulashni va ulash nuqtalarida yangidan qurilgan kommunikatsiyalarni ulashni Pudratchi amalga oshiradi.

26. Pudratchi o'zi tomonidan qurilishda qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan spetsifikatsiyalarga, texnik reglamentlarga yoki standartlarga muvofiq bo'lishini hamda ularning sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlariga, texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlariga ega bo'lishini kafolatlaydi.

27. Alohida mas'uliyatli konstruksiyalar va berkitiladigan ishlar tayyor bo'lishiga qarab ularni qabul qilish boshlanishidan 5 kun oldin Pudratchi Buyurtmachini va «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasini yozma ravishda xabardor qiladi.

28. Qabul qilinadigan konstruksiyalar va ishlarning tayyorligi Buyurtmachi va Pudratchi tomonidan mas'ul konstruksiyalarni oraliq qabul qilish dalolatnomalari hamda ularning «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasi bilan kelishgan shartlarida berkitiladigan ishlar tekshiruvini dalolatnomalari bilan tasdiqlanadi.

29. Pudratchi Buyurtmachining ishlarni bajarish daftariga kiritilgan yozma ruxsatnomasidan keyingina keyingi ishlarni bajarishga kirishadi.

30. Agar berkitiladigan ishlar Buyurtmachining tasdig'isiz bajarilgan bo'lsa yoki u bu haqda xabardor qilinmagan bo'lsa, yoki kechikib xabardor qilingan bo'lsa, u holda uning talabi bo'yicha Pudratchi Buyurtmachining ko'rsatmasiga muvofiq berkitiladigan ishlarning istalgan qismini o'z hisobidan ochishga, so'ngra esa uni tiklashga majburdir.

Pudratchi Buyurtmachining manfaatlariga jiddiy ta'sir qilmaydigan ish hujjatlaridan mayda chetga chiqishlarni Buyurtmachining roziligisiz amalga oshirsa, u agar bularning qurilish sifatiga ta'sir etmaganligini isbotlasa javobgar hisoblanmaydi.

31. Agar Buyurtmachi Pudratchi va (yoki) uning subpudratchilari tomonidan ishlarning sifatsiz bajarilganligini aniqlasa, u holda Pudratchi o'z kuchlari bilan va qurilish qiymatini ko'paytirmasdan ushbu ishlarni ularning zarur sifatini ta'minlash uchun kelishilgan muddatda qayta bajarishga majburdir, ushbu shartnoma 34-bandining ikkinchi xatboshida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

Agar Pudratchi sifatsiz bajarilgan ishlarni kelishilgan muddatlarda tuzata olmasa, Pudratchi ularni tuzatishning kechikishi oqibatida yetkazilgan zararlarni Buyurtmachiga to'laydi.

32. Pudratchi qurilish maydonini va unga tutash ko'cha polosasini, shu jumladan yo'l uchastkalari va yo'laklarni supurib-sidiradi va ozoda saqlaydi, qurilish davrida maydondan qurilish axlatini Buyurtmachi tomonidan ko'rsatilgan joyga chiqarib tashlaydi.

33. Ishlar boshlangan paytdan boshlab ular tugallangungacha Pudratchi ishlarni bajarish daftarini yuritadi. Daftarda butun ishlarning borishi, Buyurtmachi va Pudratchining o'zaro munosabatlarida ahamiyatga ega bo'lgan hollar va holatlar (ishlarning boshlanishi va tamom bo'lishi sanasi, materiallar, asbob-uskunalar berilishi, xizmatlar ko'rsatilishi sanasi, ishlarning qabul qilib olinishi, o'tkazilgan sinovlar, materiallar o'z vaqtida yetkazib berilmasligi bilan bog'liq to'xtab qolishlar, qurilish texnikasining ishdan chiqishi to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek qurilishni tugallashning uzil-kesil muddatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha ma'lumotlar) aks ettiriladi.

Agar Buyurtmachi ishlarning borishi va sifatidan yoki Pudratchining qaydlaridan qoniqmasa, u holda ishlarni bajarish daftari o'z fikrini bayon qiladi.

Pudratchi daftarda Buyurtmachi tomonidan asosli ravishda ko'rsatilgan kamchiliklarni 30 kun muddatda bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

IX. Ishlarni qo'riqlash

34. Pudratchi ishlar boshlanishidan qurilish tugallanguncha va qurilishi tugallangan ob'ekt Buyurtmachi tomonidan qabul qilib olingunga qadar chetlari to'silgan qurilish maydoni hududida materiallar, asbob-uskunalar, qurilish texnikasi va boshqa mol-mulk zarur darajada qo'riqlanishini ta'minlaydi.

35. Tiklangan binolar va imoratlar, shuningdek materiallar, asbob-uskunalar va boshqa mol-mulk ob'ekt qabul qilib olinganidan keyin saqlanishi uchun Buyurtmachi javob beradi.

X. Yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) holatlari

36. Agar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar bu holatlar mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'lmaydigan kuch holatlari amal qilgan, shuningdek ushbu holatlar yuzaga keltirgan vaqtga mutanosib ravishda uzaytiriladi.

37. Agar yengib bo'lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda Pudratchi va Buyurtmachi ishlarni davom ettirish yoki ularni konservatsiya qilish uchun qanday choralar ko'rilishini muhokama qiladilar.

38. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

XI. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish

39. Qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish shartnomani imzolash sanasida amalda bo'lgan belgilangan tartibga muvofiq mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlar tomonlar tarafidan bajarilgandan keyin, shuningdek qurilishi tugallangan ob'ektlarni foydalanishga qabul qilib olishning belgilangan qoidalariga binoan amalga oshiriladi.

40. Ob'ektlar ularning foydalanishga tayyorligi to'g'risida Pudratchining yozma bildirishnomasi Buyurtmachi tomonidan olingan kundan boshlab 5 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

41. Pudratchi qurilishi tugallangan ob'ektni qabul qilib olish boshlanishidan 5 kun oldin mazkur shartnomaning V bo'limiga muvofiq Buyurtmachiga Buyurtmachi tomonidan belgilangan tarkibda ikki nusxada ijro hujjatlarini beradi. Pudratchi Buyurtmachiga ushbu hujjatlar to'plami amalda bajarilgan ishlarga to'liq mos kelishini yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

42. Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob'ekt Buyurtmachining mulkiga aylanadi.

XII. Kafolatlar

43. Pudratchi: barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

loyiha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini; o'zi tomonidan qurilish uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalar va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatlariga, texnik reglamentlar yoki standartlarga muvofiqligini; ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni;

ob'ektdan foydalanilganda muhandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

44. Ob'ekt va unga kiradigan muhandislik tizimlari, asbob-uskunalar, materiallardan foydalanish va ishlarning kafolatli muddati tomonlar qurilishi tugallangan ob'ektning qabul qilib olish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab kamida 12 oy etib belgilanadi. Ob'ekt tomonining kafolatli muddati kamida 12 oy etib belgilanadi.

45. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatli davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga uzaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi.

Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki tomonlarga dalolatnomasida qayd etiladi.

Agar Pudratchi bajarilgan ishlardagi nuqsonlar va chala ishlarni, jumladan uskunalar kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning VII bo'limida nazarda tutilgan kafolat summasini Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

46. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlar ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish «Davrxitektqurilishnazorat» organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning ushbu masala bo'yicha iqtisodiy sudga murojaat qilishini istisno etmaydi.

XIII. Shartnomani bekor qilish

47. Buyurtmachi shartnoma kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi Buyurtmachiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Pudratchi tomonidan bir oydan ko'p vaqtga kechiktirilganda;

ishlarni tugatishning mazkur shartnomada belgilangan muddati Pudratchining aybi bilan bir oydan ortiq muddatga ko'paygan holda, Pudratchi tomonidan ishlarni bajarish jadvaliga rioya etilmaganda;

Pudratchi tomonidan shartnoma shartlari qurilish me'yorlari va qoidalarida nazarda tutilgan ishlarning sifati pasayishiga olib keladigan darajada buzilganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

48. Pudratchi:ishlarning bajarilishi Pudratchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Buyurtmachi tomonidan bir oydan ortiq muddatga to'xtatib qo'yilganda;

Buyurtmachi tomonidan moliyalashtirish shartlari bajarilmaganda;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa asoslar bo'yicha shartnomaning bekor qilinishini talab qilish huquqiga ega.

49. Shartnoma bekor qilinganda Buyurtmachi va Pudratchining qo'shma qaroriga ko'ra tugallanmagan qurilish bir oy muddatda Buyurtmachiga beriladi, Buyurtmachi bajarilgan ishlar qiymatini Pudratchiga to'laydi.

50. Mazkur shartnomani bekor qilishga qaror qilgan tomon mazkur bo'lim qoidasiga muvofiq ikkinchi tomonga yozma bildirishnoma yuboradi.

51. Shartnoma bekor qilingan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni, shu jumladan boy berilgan foydani to'laydi.

52. Shartnomaning bir tomonlarga bekor qilinishiga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida yoki mazkur shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

XIV. Tomonlarning mulkiy javobgarligi

53. Tomonlardan biri shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon: ikkinchi tomonga yetkazilgan zararlarni qoplaydi;

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida, boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda boshqacha javobgarlikka tortiladi.

54. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko'rsatilgan o'z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o'z vaqtida moliyalashtirmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarni buzganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Penya to'lanishi Buyurtmachini shartnoma shartlari buzilishi tufayli yetkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi.

55. Shartnomaga muvofiq bajarilgan ishlar hajmini tasdiqlashdan asossiz ravishda bosh tortganligi uchun Buyurtmachi Pudratchiga o'zi tasdiqlashni rad etgan yoki bosh tortgan summaning 10 foizi miqdorida jarima to'laydi.

56. Pudratchi ob'ektni o'z vaqtida ishga tushirish bo'yicha o'z majburiyatlarini buzganligi uchun Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob'ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50 foizidan oshmasligi lozim.

Buyurtmachi tomonidan topilgan nuqsonlar va kamchiliklar o'z vaqtida bartaraf etilmagani uchun Pudratchi buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, bunda penyaning umumiy summasi sifatsiz bajarilgan ishlar qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

Penya to'lash Pudratchini ishlarni bajarishning yoki xizmatlar ko'rsatishning kechikishi tufayli yetkazilgan zararlarni qoplashdan ozod qilmaydi.

57. Agar bajarilgan ishlar sifati belgilangan standartlarga, qurilish me'yorlari va qoidalariga, ish hujjatlariga muvofiq bo'lmasa, u holda Buyurtmachi «Davarxitektqurilishnazorat» inspeksiyasining xulosasi asosida ob'ektni qabul qilish va uning uchun haq to'lashdan bosh tortishi, shuningdek Pudratchidan sifati zarur darajada bo'lmagan ishlar qiymatining 10 foizi miqdorida jarima undirish huquqiga ega.

58. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar bajarilmaganligi uchun mazkur moddada nazarda tutilgan jazolardan tashqari shartnomani buzgan tomon ikkinchi tomonga boshqa tomon tarafidan qilingan xarajatlarda, mol-mulkning yo'qotilishi yoki shikastlanishida, shu jumladan boy berilgan foydada ifodalanadigan penya bilan qoplanmagan zararlarni qoplaydi.

59. Muddat o'tkazib yuborilganligi yoki majburiyatlarning boshqacha tarzda zarur darajada bajarilmaganligi uchun penya to'lash tomonlarni ushbu majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

XV. Nizolarni hal etish tartibi

60. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo'ladigan nizoli masalalarni tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sud tomonidan ko'rib chiqiladi.

XVI. Alohida shartlar

61. Mazkur shartnoma imzolanganidan keyin, mazkur shartnomaga tegishli bo'lgan tomonlar o'rtasidagi barcha oldingi yozma va og'zaki bitimlar, yozishmalar, tomonlarning o'zaro kelishuvlari o'z kuchini yo'qotadi.

62. Pudratchi qurilish ob'ektiga yoki uning alohida qismlariga tegishli ish hujjatlarini Buyurtmachining yozma ruxsatisiz, subpudratchilardan tashqari, biron-bir uchinchi tomonga sotish yoki berish huquqiga ega bo'lmaydi.

63. Mazkur shartnomaga barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma shaklda rasmiylashtirilgan va tomonlar ularni imzolashgan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

64. Buyurtmachi bilan Pudratchi o'rtasidagi mazkur shartnomadan kelib chiqmaydigan yangi majburiyatlar paydo bo'lishiga olib keladigan har qanday ahdlashuvni tomonlar mazkur shartnomaga qo'shimchalar yoki o'zgartirishlar shaklida yozma ravishda tasdiqlashi kerak.

65. Agar Pudratchi shartnoma bo'yicha ishlar yakunlangandan keyin qurilish maydonida o'ziga tegishli mol-mulkni qoldirsa, u holda Buyurtmachi Pudratchi qurilish maydonini ozod qilish sanasigacha bajarilgan ishlar uchun unga haq to'lashni kechiktirishga haqlidir.

66. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan boshqa barcha hollar uchun amaldagi qonun hujjatlari normalari qo'llaniladi.

67. Mazkur shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

XVII. Shartnomaning Amal Qilish Muddati:

68. Mazkur shartnoma G'aznachilik bo'linmasida majburiy royxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 24-avgustdan 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

69. Shartnomaning amal qilishi bir tomonning tashabbusiga ko'ra oy (bir) davomida boshqa tomonga yozma ariza topshirgan kundan boshlab barcha o'zarohisob-kitoblar tugaganligi muddatidan avval to'xtatilishi mumkin. Tomonlar o'z zimmalariga olgan barha majburiyatlarning bajarilishi taminlangan hollarda shartnoma bajarilgan hisoblanadi.

XVII. Tomonlarning bank rekvizitlari va yuridik manzillari:

«Bajaruvchi»

«Mega Best Star Stroy» MCHJ

(ijrochining nomi)

Manzili: Bulung'ur tuman

Erganakli MFY

tel/faks _____

x/r_ 20208000205406464001

Bank nomi; Agrobank fil

XKKM _____

MFO_ 00290 INN_ 308602794

OKONX_ 61110

Raxbar: **A.Xantrakulov**



«Buyurtmachi»

Bulung'ur tuman sport maktabi

(byudjet mablaglarini oluvchi nomi)

manzili; Bulung'ur shahar

tel/faks: _____

sh/xv 100022860182067083610135001

Bank nomi: _ Markaziy bank BB

MFO: 00014 INN: 207238863

OKONX: _____

Direktor: **Sh.Mamatkulov**



Moliya Vazirligi yagona G'azna hisobvarag'i

x/r 23402000300100001010

INN 201122919 MFO 00014 OKONX 97160

Markaziy bank Toshkent sh BB XKKM

«Mega Best Star Stroy» МСНЖ билан Булунгур туман спортмактаби
Ўртасида 2022 йил 24 августда тузилган №13-сонли шартномага илова

СПЕЦИФИКАЦИЯ

№	Қурилиш ишлари номи	Ўлчов бирлиги	Микдори	Нархи	Баҳоси
НАРУЖНАЯ ОТДЕЛКА					
1	РЕМОНТ ШТУКАТУРКИ ГЛАДКИХ ФАСАДОВ ПО КАМНЮ И БЕТОНУ С ЗЕМЛИ И ЛЕСОВ: ЦЕМЕНТНО-ИЗВЕСТКОВЫМ РАСТВОРОМ ПЛОЩАДЬЮ ОТДЕЛЬНЫХ МЕСТ БОЛЕЕ 5 М2 ТОЛЩИНОЙ СЛОЯ ДО 20 ММ	100М2	8,6	1900000	16 340 000,00
2	ОКРАСКА ФАСАДОВ С ЛЕСОВ С ПОДГОТОВКОЙ ПОВЕРХНОСТИ ПОЛИВИНИЛАЦЕТАТНАЯ	100М2	8,6	1500000	12 900 000,00
3	ОКРАСКА ФАСАДОВ С ЛЕСОВ ПО ПОДГОТОВЛЕННОЙ ПОВЕРХНОСТИ ПОЛИВИНИЛАЦЕТАТНАЯ	100М2	6,4	1500000	9 600 000,00
4	ОКРАСКА МАСЛЯНЫМИ СОСТАВАМИ РАНЕЕ ОКРАШЕННЫХ МЕТАЛЛИЧЕСКИХ ОГРАЖДЕНИЯ ЗА 2 РАЗА	100М2	7,2	177600	1 278 720,00
5	РЕМОНТ МЕТАЛЛИЧЕСКИХ ВОРОТ	М2	24	100000	2 400 000,00
ЭЛЕКТРИЧЕСКАЯ ЧАСТЬ					
6	УСТАНОВКА СТАЛЬНЫХ ОПОР НА НАРУЖНЫХ ФУНДАМЕНТАХ МАССОЙ ДО 0,5 Т	ОПОРА	22	120000	2 640 000,00
7	ТРУБЫ СТАЛЬНЫЕ Д 50 ММ	М	90	44348	3 991 320,00
8	КАБЕЛЬ, МАССА 1 М, КГ, ДО 1Т МАРКИ АВВГ, С ЧИСЛОМ ЖИЛ И СЕЧЕНИЕМ, ММ2: 2Х16	100М	3	755565	2 266 695,00
9	ПРОЖЕКТОР, ОТДЕЛЬНО УСТАНАВЛИВАЕМЫЙ НА СТАЛЬНОЙ МАЧТЕ, С ЛАМПОЙ МОЩНОСТЬЮ, ВТ 200	100ШТ	0,46	35078300	16 136 018,00
БЛАГОУСТРОЙСТВО					
10	УСТРОЙСТВО ОСНОВАНИЙ И ПОКРЫТИЙ ИЗ ПЕСЧАНО-ГРАВИЙНЫХ СМЕСЕЙ ОДНОСЛОЙНЫХ ТОЛЩИНОЙ 12 СМ	1000М2	0,8	10000000	8 000 000,00
11	УСТРОЙСТВО ЦЕМЕНТОБЕТОННЫХ ПОКРЫТИЙ ОДНОСЛОЙНЫХ СРЕДСТВАМИ МАЛОЙ МЕХАНИЗАЦИИ, ТОЛЩИНА СЛОЯ 10 СМ	1000М2	0,8	78000000	62 400 000,00
12	УСТАНОВКА БОРТОВЫХ КАМНЕЙ БЕТОННЫХ ПРИ ДРУГИХ ВИДАХ ПОКРЫТИЙ	100М	0,7	9000000	6 300 000,00
13	УСТРОЙСТВО ИРРИГАЦИИ ИЗ СБОРНЫХ Ж/Б ЛОТКОВ 5 М	100М	0,5	4073630	2 036 815,00
ИТОГО ПРЧЯМЫЕ ЗАТРАТЫ					146 289 568
ПРОЧИ ЗАТРАТЫ И РАСХОДЫ ПОРЯДЧИКА-18,11%					26 493 041
ИТОГО СТОИМОСТ СТРОИТЕЛЬСТВА ТЕКУЩИЙ ЦЕНАХ					172 782 609
НДС-15%					25 917 391
					198 700 000

Булунгур туман спорт мактаби директори

«Mega Best Star Stroy» МСНЖ раҳбари



Ш.Маматкулов

А.Хамракулов

Буюртмачи Булунгур туман спорт мактаби номидан Ш.Маматкулов билан иш бажарувчи «Mega Best Star Stroy»МСНЖ номидан А.Хамракулов ўртасида тузилаётган жорий таъмирлаш шартнома лойихаси юзасидан «Mega Best Star Stroy»МСНЖ да юрист лавозимида ишлаб келаётган И.Ўролов томонидан.

ХУЛОСА.

Мен ушбу Булунгур туман спорт мактабига қарашли (Мингчинор олимпия ўйингохи) биносини жорий таъмирлаш бўйича тузилаётган **198 700 000 (Бир юз тўқсон саккиз миллион етти юз минг) сўм** ташкил қилган шартнома лойихасини амалдаги Ўзбекистон Республикасининг фуқаролик кодекси “Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий ҳуқуқий базаси тўғрисида”ги қонуни ва бошқа қонун ҳужжатлари асосида ҳуқуқий ҳолда тузилган ва унга мос келади

Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик Кодексининг 437-456 моддаларига амал қилинган ҳолган тузилган.

Экспертиза қилиб ушбу «Mega Best Star Stroy»МСНЖ ҳақиқатдан ҳам Булунгур туман хокимлигидан рўйхатдан ўтган гувоҳнома реестрдаги тартиб рақами №1005132 2021 йил 21 июн билан давлат рўйхатидан ўтганлиги ва А.Хамракулов шартномани имзолаш ҳуқуқига эга эканлиги ҳамда буюртмачининг ва иш бажарувчининг банк реквизитлари тўғри бўлиб ,тўлов қобилиятига эга эканлиги ва шартнома лойихасининг қонунчилик ҳужжатларига мос келишлигини аниқладим шу сабабли ушбу шартномани имзоласа бўлади деб ҳисоблайман.

«Mega Best Star Stroy»МСНЖ
юристи



И.Ўролов

Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 136050 на приобретение Булунгур туман спорт мактабига карашли Мингчинор уйингоhini жорий таъмирлаш

Способ проведения электронный

Дата 19.08.2022

Время рассмотрения 19.08.2022 10:06

Конкурсная комиссия Болалар ва усмирлар спорт мактаби, (Далее – Комиссия) в составе:

Председатель комиссии	MAMATKULOV SHAROF ABDUVAXOROVICH	директор	БУСМ
Секретарь комиссии	XO'JAMBERDIYEVA	Котиба	БУСМ
Член комиссии	XUDAYKULOV FAXRIDIN SHAMSIYEVICH	Методист	Бусм
Член комиссии	BOBOJONOV DAVRON O'ROLOVICH	методист	БУСМ
Член комиссии	SAMATOV RUSTAM ABDUSAMATOVICH	Хужалик мудири	БУСМ
Член комиссии	MAMATKULOVA GULCHENRA TUXLIYEVNA	хисобчи	Бусм

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 19.08.2022 года № лота 136050.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.техничко-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 80

Предмет закупки:

Наименование товара (работы, услуги)	Услуга по текущему ремонту нежилых зданий
Подробное описание	Булунгур туман спорт мактабига карашли-Мингчинор уйингоhini жорий таъмирлаш
Количество товара	1.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	198 764 559.00
Стартовая сумма	198 764 559.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Банк ва солик идораларидан карздорлиги тугрисида ва Пудратчи ташкилот иш тажрибаси камида 5 йил булиши шарт

Тип: Текстовое значение

Описание: Тасдикланган холатда

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП AZIMJON MARJONA	10	хужжатлар такдим этилади	10	Экспертная		
ООО MEGA BEST STAR STROY	10	хужжатлар такдим этилади	10	Экспертная		

Критерий №2 Корхонанинг молиявий ҳолати тугрисида умумий маълумот (Баланс, Молиявий натижа,)

Тип: Текстовое значение

Описание: тасдиқланган ҳолатда

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП AZIMJON MARJONA	20	ҳужжатлар тақдим этилади	15	Экспертная		
ООО MEGA BEST STAR STROY	20	ҳужжатлар тақдим этилади	20	Экспертная		

Критерий №3 Корхонанинг механизмлар, ишчилари ва асосий воситалари ҳақида тулик маълумот

Тип: Текстовое значение

Описание: Ҳужжатлари билан

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП AZIMJON MARJONA	30	ҳужжатлар тақдим этилади	25	Экспертная		
ООО MEGA BEST STAR STROY	30	Корхонамиз балансида 2 та техникамиз бор ХАВО камаз ва эксковатор покрузик трактор бор бундан ташқари корхонамиз ишчилар юқори тажриба ва малакага эга	30	Экспертная		

Критерий №4 Корхонанинг 2021 йил оборот маблаг

Тип: Текстовое значение

Описание: Ҳужжатлари билан

Обязательность: Не критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ЧП AZIMJON MARJONA	40	ҳужжатлар тақдим этилади	35	Экспертная		
ООО MEGA BEST STAR STROY	40	суралган ҳужжатларни тақдим қиламиз	39	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
------------------------	-----------------	--------------------	----------------------------	------------------------	----------------------	------------------	-------------------------

			(UZS)				
ООО MEGA BEST STAR STROY	198 764 559.00	198 700 000.00 UZS	198 700 000.00	00.00	198 700 000.00	19.08.2022 08:06:22	20.00
ЧП AZIMJON MARJONA	198 764 559.00	198 764 559.00 UZS	198 764 559.00	00.00	198 764 559.00	18.08.2022 19:08:10	19.99

Заказчик вправе применить преференцию в отношении отечественных производителей

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
ООО MEGA BEST STAR STROY	79.2	20	99.2
ЧП AZIMJON MARJONA	68	19.99	87.99

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 136050 от 19.08.2022 года на приобретение Булунгур туман спорт мактабига карашли Мингчинор уйингоhini жорий таъмирлаш определила победителем:

ООО MEGA BEST STAR STROY
308602794

и резервный исполнитель: ЧП AZIMJON MARJONA (306655865)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
Председатель комиссии	MAMATKULOV SHAROF ABDUVAXOROVICH	Согласен	
Член комиссии	XUDAYKULOV FAXRIDIN SHAMSIYEVICH	Согласен	
Член комиссии	BOBOJONOV DAVRON O'ROLOVICH	Согласен	
Член комиссии	SAMATOV RUSTAM ABDUSAMATOVICH	Согласен	
Член комиссии	MAMATKULOVA GULCHENRA TUXLIYEVNA	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"MEGA BEST STAR STROY" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"MEGA BEST STAR STROY" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

21.06.2021

1005132

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

308602794

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Samarqand viloyati, Bulung'ur tumani, Soxibkor, Erganakli MFY,

Guvohnoma:

Samarqand viloyati, Bulung'ur tumani, DAVLAT
XIZMATLARI MARKAZI

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

